

2025-yil 5-dekabr

“O'zkimyosanoat” AJ va “Sinoma Energy Conservation” o'rtasidagi hamkorlik amaliy loyihalar bilan mustahkamlanadi



Bugun “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Odil Temirov va “Sinoma Energy Conservation” – Xitoy Xalq Respublikasining yirik sanoat-injiniring kompaniyasi boshqaruvi raisi Men Sinlin o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida tomonlar hamkorlikning bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qildilar.



Ta'kidlash joiz, "Sinoma Energy Conservation" kompaniyasi dunyodagi yirik qayta tiklanuvchi energiya hamda atrof - muhitni muhofaza qilish kompaniyalaridan biri bo'lib, O'zbekistonda ham qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Ayni paytda mazkur kompaniya bilan hamkorlikda Navoiy viloyatining Karmana tumanida joylashgan 300 MVt quvvatli quyosh stansiyasi o'z faoliyatini boshladi.




Shuningdek, kimyo sanoati korxonalarida eski nasos stansiyalarini zamonaviy, yuqori energiya samaradorligiga ega yangi nasos agregatlari bilan bosqichma-bosqich almashtirish ishlari olib borilmoqda. Joriy yilda "Navoiyazot" AJda nasos agregatlarini o'rnatishni birinchi bosqich loyihasi doirasida joriy yil oxiriga qadar 6 ta nasosni to'liq almashtirish va natijada 11 mln. kVt elektr energiya tejash rejalashtirilgan.



Muloqot chog'ida "Maxam-Chirchiq" AJda energiyatejamkor yangi texnologiyalarni joriy etish hamda "Navoiyazot" AJda ammiakli selitra ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish va yangi ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida hamkorlikni amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida "O'zkimyosanoat" AJ va "Sinoma Energy Conservation" o'rtasida energiya samradorlikni ta'minlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, kimyo sanoatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan 4 ta kelishuv imzolandi.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-sinoma-energy-conservation-o-rtas-idagi->